www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

“YUSUF VA ZULAYHO” dostonining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni

Xatamova Muattar Qodirjon qizi
Tel:+998994876768.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida “Yusuf va Zulayho’’dostonining yaratilishi va shu turkumdagi doston hamda qissalarni ko‘rib chiqamiz.
Аннотация:В данной статье мы рассмотрим создание эпоса Юсуф и Зулейха в узбекской классической литературе, а также былины и рассказы этой серии.
Annotation: In this article, we will consider the creation of the Yusuf and Zuleikha epic in Uzbek classical literature, as well as epics and stories in this series.
Kalit so‘zlar: qissa, doston,xalq og‘zaki ijodi, syujet,majoziy ishq, haqiqiy ishq, to‘rtlik.
Ключевые слова: новелла, эпос, фольклор, сюжет, метафорическая любовь, настоящая любовь, четыре.
Key words: short story, epic, folklore, plot, metaphorical love, real love, four.

Keyingi yillarda mumtoz asarlarni tadqiq qilish masalasi hukumat tomonidan qayta ko‘rib chiqilib, “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda “Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilayotganligi’’ ta’kidlangan.

“Yusuf va Zulayho’’dostoni butun yer yuzidagi xalqlarning durdona asari hisoblanadi.”Yusuf va Zulayho’’ dostoni turli tillarda yozilgan va qadim o‘tmishimizdan bugungacha milliy boylik sifatida ulug‘lanib kelinadi.

Asarning dastlabki tarixi eramizgacha bo‘lgan xalq og‘zaki ijodidan boshlangan.Bilamizki,bu doston va uning qahramonlariga musulmonlarning “Qur’on’’da va shuningdek, “Tavrod’’ va”,Injil’’da ham alohida suralar bag‘ishlangan[3.B.421].

“Qur’on’’da qissalarning eng go‘zali deb atalgan Yusuf qissasi juda qadimiy sujetlardan biri bo‘lib,u dastlab Muso alayhissalomga nozil qilingan “Tavrod’’ ning birinchi kitobiga,keyin Iso alayhissalom ta’limotini o‘z ichiga olgan “Injil’’ga kiritilgan.

O‘zbek adabiyoti tarixida go‘zal Yusuf mavzusi birinchi marotaba Ali ismli shoirni qiziqtirgan.Ali tomonidan Qur’ondagi asosiy voqealar ilgari suriladi.E.E.Bartelsning ta’kidlashicha ,Ali Xorazmlik bo‘lgan.U fors mualliflariga taqlid qilmasdan asar yozishga kirishdi.Uning asari xalq og‘zaki ijodiga xos to‘rtlik shaklida yozadi.Bu shakl turk xalqlari og‘zaki ijodiga juda yaqin.Alining qissasi mazmun tomonidan ham fors poeziyasi bilan bog‘lanmagan.U Qur’on variantiga amal qiladi.Ali Qur’onda berilgan afsonaviy qissani turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabab uning mazmun mohiyatidagi muhabbat talqinidir.Dostonda olg‘a surilgan ishq g‘oyasida dastavval Yaratganga bo‘lgan muhabbat haqida so‘z ketadi.inson barcha qiynoq va sinovlardan o‘tib,sabr-bardosh bilan ilohiy ishqqa yetadi.Ishq yo‘lidagi muhabbat azoblarini,firoq va hijronda o‘rtanish visolning mavjudligini bildiradi.

. Shuni aytish joizki,bu dostonning 150 nusxasi bo‘lib,ularning talqinlari bir-biriga o‘xshamaydi.Ulardan 50 tasi badiiy asarlardir.Bu nazm gulshanida javlon urgan,qalami o‘tkir buyuk siymolar ishq dostonini o‘zlaricha talqin qilib,kitobxonlarga yetkazib berdilar.Faqat doston oxiridagi baxtli visol ko‘ngilga xush yoqadi[5.B.5].

Shuni aytish joizki,dostonning eng mashhurlarini Firdavsiy,Abdulmuayyid Balxiy,Shohin Sheroziy,Shahobiddin Am’aq,Abdulloh Ansoriy,Xo‘ja Mas’ud Iroqiy,Abdurahmon Jomiy va boshqalar yaratgan deyishimiz mumkin.Yusuf mavzusini sharq xalqlari adabiyotida birinchi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

marotaba buyuk fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy tomonidan ishlangan.Bu fikrni N.M.Mallayev o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi’’kitobida tasdiqlaydi:„Bu mavzuda yaratilgan eng qadimgi badiiy asarlardan biri Firdavsiy nomiga nisbat berilgan “Yusuf va

Zulayho’’dostonidir. Jumladan,turli davrlarda turkiy adabiyotda ham shu mavzuda 50 ga yaqin asar ijod qilingan.Masalan,Qul Ali,Nosiriddin Rabg‘uziy,Haydar Xorazmiy,Mulla Yusuf Yorkandiy,Nozim Hiraviy,Sayqaliy,Xiromiy,Salohiy,Andalib,Hoziq kabi ijodkorlar qissa va dostonlar bitganlar. Asar syujeti asosida asarlar yaratish XX asrda ham davom etdi.Xususan,Hamza Hakimzoda Niyoziy “Qiroat’’ kitobida bu qissani sodda til bilan qisqacha hikoya qilgan ,Nozim Hikmat “Go‘zal Yusuf’’pyesasi,Ramz Bobojonov “Yusuf va Zulayho’’musiqali dramasini yaratdi.Jomiyning “Yusuf va Zulayho’’asari XIX asrda Ogahiy tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilindi.

O‘zbek shoiri Durbekning (XIV asr oxiri-XV asr boshi) “Yusuf va Zulayho’’ asarigina bizgacha yetib kelga[3.B.430]..Bu doston 1409-yili yozilgan. Doston asosini sharqda mashhur Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyat tashkil etgan.”Yusuf va Zulayho’’dostonining qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instutida,Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanadi.Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz sifatida tasvirlansa,keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi.Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlar Zulayhoni Go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar.Durbek Qur’onning “Yusuf sura’’si voqealariga ijodiy munosabati,Ilohiy kitob va doston matnidagi o‘xshash hamda tafovutli nuqtalar xususida teran mushohadalar diqqat markazida tutiladi.

Dostondan Yusuf obrazi nafsi-notiqa,ya’ni jilovlangan va orif odamlarning nafsi timsoli sifatida ko‘rsatilgan.

Abdurahmon Jomiyning uchinchi kitobi bo‘lmish “Yusuf va Zulayho’’1483-yilda yozilgan.Sharqda bu dostonning juda ko‘p variantlari mavjud bo‘lib,uni qalamga olgan har bir ijodkor asarga biror o‘zgarish va yangilik ko‘rsatishga harakat qilgan.Jomiyning bu asari adabiyotshunoslar talqinicha,taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo‘lmay ,aksincha insonni yuksak tuyg‘ular yo‘lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o‘tgan musaffo muhabbat g‘alabasini madh etuvchi jo‘shqin asrdir. Ogahiy tarjimasi uchun asos qilib olingan Jomiyning “Yusuf va Zulayho’’ dostoni fors-tojik va turkiy tillarda bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali,ayni zamonda ,badiiy jihatdan eng kuchlisi hisoblanadi.Shuning uchun ham bu doston yaqin va o‘rta sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va katta shuhrat qozongan.Dostondagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega .Yusuf va Ya’qub payg‘ambarning nafsi-jonning m oddiy tomonidir.Yusufning birodarlari sa’yi-harakatlari insondagi badaniy quvvatlar –ichki sezgilarning ramzidir.Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi-muhabbat izhor qilishi insonda istak-xohishnng ma’naviy tomonidir.Yusufning xotindan o‘zining olib qochishi va uning xohish irodasiga ko‘nmasligi aqlning o‘z olamiga ustuvor turishi ,hissiyot quli bo‘lmasligining ramzidir.

Yusufdagi insonga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlar uning donoligid a,xalqparvarligida,xushmuomilaligida,vatanparvarligida hamda otasiga bo‘lgan farzandlik muhabbatida yaqqol seziladi.

Dostonda baxtsizlikdan qutilish uchun chidash,sabr –toqat qilish kerakligi aytiladi.Ayni mana shu sabr Yusufni poklikka,nafsni yengib,butun bir mamlakatni boshqarib,xalqni qahatchilikdan,ochlikdan omon olib chiqadi. Yusuf ocharchilik yillarida to‘yib ovqat yemas edi.Undan:”Qo‘lingda dunyoning noz-u ne’matlari bor ekan,nima sababdan och yuribdan ?”-deb so‘raganlarida:”Agar to‘q bo‘lsam,ochlarni unutaman deb qo‘rqaman”,-der edi.Shu sababli Yusufda insoniy fazilatlarning yorqin namunasi aks ettirib turadi[3.B.437].

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki,shaxsni barkamol qilib yetishishiga,eng muhimi,uning ma’naviy dunyosi boyishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri deb biz bemalol badiiy adabiyotni ko‘rsatishimiz mumkin bo‘adi.

Ta’kidlashimiz mumkinki,asrlar davomida payg‘ambarlar sarguzashti faqat ilohiy kitoblar doirasida qolib ketgan emas.Bunday ibratli lavhalar axloqiy-ta’limiy olamning ko‘rkam namunasi sifatida insonlar qalbiga, shuningdek,og‘zaki hamda yozma badiiy adabiyotga teranroq kirib borgan.

Demak,mazkur doston yosh avlodning ma’naviy shakillanishida katta hissa qo‘shadi.Masalan,asardagi Yusufning sabr-toqatligi,vatanparvarligi,ota-onaga hurmati va boshqa jamiki fazilatlari yoshlar uchun o‘rnak bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdullayev M. O‘zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent.O‘qituvchi,1964.
2.Abduraxmon Jomiy.Saylanma.-Toshkent.Adabiyot va san’at,1971.
3.Rahmonov N.O‘zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent,2017.
4.Qur’on.Yusuf surasi.Sharq yulduzi,1990-y,11-son. 5. Yormatova.D.Yusuf va Zulayho.-Toshkent,Navro‘z,2014.